

HUQUQIY MADANIYATGA OID TUSHUNCHALAR ULARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich

**Andijon davlat universiteti huquq-iqtisod fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi

Huquq-iqtisod fakulteti menejment yo'nalishi 2-bosqich 201-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20458504>

Annotatsiya: Mazkur tesizda huquqiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni hamda huquqiy madaniyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga hurmat, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini anglash darajasi huquqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlari sifatida yoritilgan. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi roli ochib berilgan. Huquqiy madaniyatning yuksalishi demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilim, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy tarbiya, huquq va majburiyatlar, demokratik davlat, huquqiy davlat, huquqiy savodxonlik, qonunga hurmat, huquqiy ta'lim.

Demokratik tamoyillarga asoslangan yangicha fikrlovchi jamiyatni qurish, albatta yangi davlat uchun har tomonlama chuqur o'ylangan tashkiliy, huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayonda o'z huquq va erkinliklari hamda majburiyatlarini nafaqat yaxshi biluvchi, bu huquq va erkinliklarini amalga oshira oladigan va o'z majburiyatlariga vijdonan yondashadigan, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qila oladigan ko'nikmaga ega bo'lgan yuksak huquqiy madaniyatli, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan insonlardan tashkil topgan jamiyatni shakllantirish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida mamlakat ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Nafaqat ta'lim tizimida, balki hamohang ravishda davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlarda demokratik tamoyillar asosidagi yangi fanlar yosh avlodni dunyoqarashini o'zgartirishda katta rol o'ynamoqda.

Ana shunday fanlar qatorida, mustabit tuzum paytida ta'lim tizimimiz uchun notanish bo'lgan inson huquqlari masalasi va uning uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilishi mamlakatdagi islohotlarda, davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hal qiluvchi omil bo'ldi.

Sabab, yangi demokratik jamiyatda har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini va shu bilan bir qatorda o'z majburiyatlarini ham bilishi lozim-ki, busiz demokratik jamiyatga asoslangan huquqiy davlatni qurib bo'lmaydi. Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. *Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.*¹. “Huquqiy madaniyat deganda fuqarolarning qonunlar to'g'risidagi bilimlari hajmigina emas, balki jamiyat huquqiy hayotining sifati holati, huquqiy

1“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. /Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr

hujjatlarning, huquqiy va huquqni qo'llash faoliyatining, shaxs huquqiy ongi hamda huquqiy rivojlanishining mukammallik darajasi, shuningdek. Uning xatti-harakati erkinligi, davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati darajasi tushuniladi².

Inson huquqlari hamda erkinliklarini ta'minlash amaliyotining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning samarali ro'yobga chiqarilishi muayyan omillar majmuiga bog'liq bo'lib, ular orasida fuqarolarning huquqiy madaniyati muhim o'rin tutadi³. Binobarin, madaniyat, bu bevosita jamiyatdagi muayyan jarayonlar asosida doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boruvchi hayotiy bilimlar va ko'nikmalar va ularning majmuini tashkil etar ekan, "Insonning o'z huquq va erkinliklari, ularning milliy va xalqaro organlar tomonidan himoya qilinish usullari va vositalari to'g'risidagi bilimlari majmui, ularga o'z xavfsizligini ta'minlashning muhim omili sifatida munosabatda bo'lish "inson huquqlari madaniyati" tushunchasi"⁴ni tashkil etadi.

Ko'p hollarda jamiyatda "huquqiy madaniyat" va "inson huquqlari madaniyati" degan tushunchalar bir xil tushunchalar degan fikrlar mavjud⁵.

"Huquqiy madaniyat" tushunchasini aniqlash uchun bir necha yondashuvlar mavjud. Huquqiy adabiyotda bu tushuncha huquq, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniylik, huquqiy tartib, huquqqa rioya etishni qamrab oladi. Ko'p hollarda huquqiy madaniyat darajasi qanday bo'lishi kerak, degan savollar qo'yiladi.

"Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlarda xabardor bo'lishdangina iborat emas. U - qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy adaniyat degani-turli mojarolarni hal qilishda qonunga hilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir."⁶

I.Karimovning so'zlaridan ko'rinib turganidek, huquqiy madaniyat, bu eng avvalo, inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan qonunlarni til uchidagina emas, dildan, qalbdan, vujudan hurmat qilish, e'zozlash, muqaddas deb bilishdir. Huquqiy madaniyatning eng muhim jihati qonunga so'zsiz itoatkorlik, qonunlarga bo'ysunish, ularga to'la rioya etish, ular asosida faoliyat yurgizishdir. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, balki qonunlarga qat'iy amal qilishdir. Qonunlarga rioya etmaydigan odamni huquqiy madaniyatli deb bo'lmaydi. Odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilishda unga murojaat etish, uni o'zi uchun himoyachi deb bilish va e'tiqod qilish ham huquqiy madaniyatdir.

Huquqiy madaniyat - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik

2 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: "O'zbekiston", 2010. -B.286

3 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: "O'zbekiston", 2010. -B.286

4 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: "O'zbekiston", 2010. -B.286

5 Yuldasheva G., Borsiyeva Z. Prava cheloveka. Uchebnoye posobiye. -T.: TDYUI, 2011. -S.161

6 I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T., "O'zbekiston", 1996, 22-bet

palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. /Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O'zbekiston”, 2010. -B.286
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O'zbekiston”, 2010. -B.286
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O'zbekiston”, 2010. -B.286
5. Yuldasheva G., Borsiyeva Z. Prava cheloveka. Uchebnoye posobiye. –T.: TDYUI, 2011. -S.161
6. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T., "O'zbekiston", 1996, 22-bet